Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317979

харажатларнинг ўзи ҳисобига ҳам бу солиқ тўловчиларда айланма миқдори 1 миллиард сўмга етиб қолиши шак-шубҳасиз. Бу ўз навбатида, юқори чегаравий миқдоригача айланмага эга бўлганларга солиқ оғирлигини ошганлигини билдиради. Мазкур ҳолат кўпроқ кичик бизнес субъектларида кузатилади. Шунинг учун, бугунги кунда кичик бизнес субъектларини солиқлар орқали қўллаб-қувватлаш давлат солиқ сиёсатидан четда қолаётгандай туюлмоқда.

Ўзбекистонда меҳнат ресурсларининг кўплигини ҳисобга олиб, кичик бизнес субъектларининг ижтимоий муҳимлигини инобатга олиб, бизнинг фикримизча 1 миллиард сўмлик чегара миқдорини қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун, қўшни давлатларнинг, масалан Россия Федерациясининг ижобий тажрибасини, биз солиқ сиёсатимизни ишлаб чиқишда усул ва ечимларидан фаол фойдаланаётганлигимизни ҳисобга олиш мумкин.

Россия Федерациясида, агар сўнгги 12 ой давомида жами даромад 60 миллион рубл чегарасидан ошса, бу 3 726 708 074 сўмни ташкил этади (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2025 йил 16 майдаги курси бўйича 1 Россия рубли 161 сўмга тенг), ҚҚС ва фойда солиғига мажбурий ўтиш содир бўлади.

Демак, ушбу хорижий тажрибалардан келиб чиқиб, бугунги кунда айланманинг юқори чегаравий миқдорини 5 миллиард сўм қилиб белгилаш мақсадга мувофиқ бўлиб ҳисобланади.

Ушбу тартиб, кичик бизнес субъектларида солиқ оғирлигини камайишига, бандликни таъминлашга, уларни тараққий этишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшади ва мамлакат ЯИМдаги улушини ошишига олиб келади.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH.

Xolmatova Nodiraxon Quddusovna
TDIU Andijon fakulteti o’qituvchisi.
Sayfullayev Abdulahadbek Ismoil o‘g‘li
TDIU Andijon fakulteti
*MMT-70/23 guruh talabasi***.**

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunda respublikamizda eng dolzarb muammolardan biri yirik korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida xarajatlar va daromadlarning hisobini yuritish va uni nazorat

Published: 24.05.2025
Cite this article: Xolmatova Nodiraxon Quddusovna, Sayfullayev Abdulahadbek Ismoil o‘g‘li (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317979
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qilish haqida fikrlar keltirib o‘tilgan. Xarajatlar va daromadlarni shakllantirish bo‘yicha zamon talabi bo‘lib turgan xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xarajat, daromad, tannarx, foyda, zarar, balans, standart.

Har qanday mahsulotni ishlab chiqarish (bozorga taklif qilish uchun mo‘ljallangan) muayyan iqtisodiy resurslarning narxini, ularning optimal tanlovini talab qiladi. Xarajatlar darajasi bozorda raqobatni shakllantirishga va daromadni oshirishda eng muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan aksiyadorlik jamiyatlarida ham xarajatlarni to‘g‘ri shakllantirish asnosida uning foyda yoki zarar ko‘rganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Aksiyadorlik jamiyati qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullansin baribir uning xarajatlar va daromadlarini hisobga olish tizimini yangilash va yangilanishning amaldagi qonun xujjatlariga mosligini nazorat qilish kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizga bozor elementlari va xalqaro tajribalarning tadbiq etilib borilishi, barcha xo‘jalik tarmoqlarini modernizatsiyalash negizida, ularni axborot ta’minotining asosi bo‘lgan buxgalteriya axboroti bilan ta’minlash asnosida ularning daromadlar va xarajatlari hisobini nazorat qilish yanada muhimdir. Xususan, iqtisodiyotimizning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan yirik sanoat korxonalari, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya axborotining eng asosiy qismi bo‘lgan daromadlar va xarajatlari hisobini nazorat qilish va ushbu axborotlar asosida ularga chet el investorlarini jalb etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Xech ikkilanmay aytishimiz mumkinki aksiyadorlik jamiyatlarida bunday muammolar paydo bo‘lganda ularning daromadlari va xarajatlarining hisobini nazorat qilish kerak bo‘ladi va shu asnosida ularning buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish va ularning moliyaviy hisobotlarini xalqaro miqyosda tan olingan standartlar asosida trasformatsiya qilish va bu standartlarni amaliy ish jarayonlarida joriy qilish kerak bo‘ladi. Tan olish kerak, mutaxassislarning bilim va malaka jixatdan yirik korxonalarning mustaqil transformatsiya qilish uchun texnik imkoniyatlari yetarli darajada emasligi barchamizga ayon. Shuni inobatga olgan holda xorijiy tajribani o‘rganish va zarur bo‘lsa xorijiy mutaxassislarni chaqirib amaliyotchi mutaxassislar bilan tajriba almashtirish karak bo‘ladi.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyatining asosi foyda olishga qaratilgan hisoblanadi. Shunday ekan aksiyadorlik jamiyatlarida ham foydaga chiqish yoki chiqmasligi ko‘p jixatdan ularda olib borilayotgan buxgalteriya hisobidagi xarajatlar va daromadlarning to‘g‘ri shakllantirilayotganligiga bog‘liq hisoblanadi. Daromad va xarajatlar darajasi foyda va zararni baholashning asosidir, ular sotish hajmi, mahsulot narxi, xizmatlar, tovarlar va xarajatlar bilan belgilanadigan sotish rentabelligi ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Mahsulot turlarini optimallashtirish, marketing tadqiqotlari, narxlarni belgilash va xarajatlarni boshqarish kabi faoliyatlarni amalga oshirishda mas’uliyat markazlarini tashkil etish bilan amalga oshirilsa korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ketayotgan xarajatlarni optimallashtirishga erishilib xarajatlarning foydalilik darajasini yuksaltirishga erishish mumkin bo‘lar edi.

Ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda xarajatlarning asosiy qismini xom-ashyo va ishlab chiqarishdagi mehnat haqi xarajatlari tashkil etsa, xizmat ko‘rsatish korxonalarida esa sotish xarajatlari va ma’muriy xarajatlar asosiy o‘rinni tashkil etadi. Shunday ekan korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan ishlab chiqarish, sotish va ma’muriy xarajatlarini mas’uliyat markazlarida tasniflash, hisobga olish, boshqarish va rejalashtirish kerak bo‘ladi. Bu orqali esa biz nafaqat xarajatlarni shu bilan bir qatorda daromadlarimizni xam tasniflashga erishishimiz mumkin bo‘ladi. Bu bilan esa korxonamizda faoliyat olib borayotgan bo‘limlarning foydalilik darajasini va xattoki xodimlarning ish effektivlik darajasini xam baholashimiz mumkin bo‘ladi. Bu yig‘ilgan buxgalteriya malumotlari korxona rahbarlari va bo‘lajak investorlar uchun ham eng muhim va qimmatli ma’lumot hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rizayev N., Hotamov K. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda Yaponiya tajribasi. “Moliya va bank ishi” elektron-ilmiy jurnali. Toshkent, №1. 2020.
2. Daromadlar va xarajatlar hisobi haqida taxliliy uslubiyoti (avtotransport korxonalari misolida) [Matn]/M.B.Kolonov.-Toshkent: Akademnashr, 2019.-352 b.
3. Rizayev.N. /Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021 yil 2-son.
4. 2023 yil yakuni bo‘yicha davlat budjetining daromad va xarajatlari. .. -